

1-MART – O‘ZBEKISTON  
XALQ SHOIRI ZULFIYAXONIM  
TAVALLUD TOPGAN KUN



**Tong**

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N: 8 (67277)  
2020-yil 24-fevral

**yulduzi**

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O‘zbekiston Respublikasi bolalar va o‘smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

## BAXTLI BOLALIKNING BAXTIYORLARI

**Yurtimiz kundan kunga chiroy ochmoqda. Ayniqsa, go‘zal Toshkent shahrining Sergeli tumani ham kun sayin yashnab bormoqda. Uy-joylar, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, zamonaviy maktablar qurilmoqda. Jumladan, tumandagi «Baxtli bolalik» 44-maktabgacha ta‘lim tashkilotining foydalanishga topshirilishi yosh oilalar uchun quvonchli voqea bo‘ldi.**

– Tarbiyachimni onamdek quchoqlab olgim keladi, – deydi 3 yoshli Saidazim Shohidov...

Ushbu maskanda bolajonlarning sog‘lom, bilimdon bo‘lib ulg‘ayishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan: sport va gimnastika zali, kutubxona, rassomlik dastgohlari, o‘yingohlar. Barcha mashg‘ulotlar «Ilk qadam» Davlat o‘quv dasturi asosida o‘tiladi.

Asli kasbi psixolog bo‘lgan mazkur tashkilot rahbari bog‘chadagi har kungi mashg‘ulotlar kichkintoylarning sog‘lom ulg‘ayishi, aql, tafakkurining rivojlanishi, iqtidorini yuzaga chiqarishida muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta‘kidladi.

Yaqinda Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tadbirda ham bolajonlar o‘z iqtidorini namoyon etib, faolliklari bilan tengdoshlariga ibrat bo‘lishdi. Zero, «Ilk qadam» Davlat dasturining asl maqsadi ham har bir bolaning iqtidorini yuzaga chiqarishdir.

Bolalar juda ziyrak, sinchkov bo‘lishadi. Chin yurakdan ko‘rsatilayotgan mehrni ajrata olishadi. «Bog‘chaga bormayman», deya xarxasha qiladigan ayrim tengdoshlaridan farqli o‘laroq, bu ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining bog‘chaga oshiqayotgani, Saidazim singari kichkintoylarning bog‘cha opasini quchib olgisi kelayotganining asl sababi ham ana shu haqiqiy MEHR bo‘lsa, ajabmas.

**Nodira NAZAROVA**



– Har bir bolaga o‘z farzandimdek mehr berishga, ularning murg‘ak qalblariga yo‘l topishga harakat qilaman, – deydi ushbu tashkilot rahbari Tamilla Qambarova. – Muhimi, hech bir bola e‘tiborimizdan chetda qolmaydi. Bunda menga, albatta, yosh, tashabbuskor tarbiyachilar ko‘maklashayapti.



Z.Nishonova olgan suratlari



# HAR KUN O'QISH KERAK! HAR KIM O'QISHI KERAK!

Maktabimizda ajoyib badiiy-ijodiy kecha o'tkazdik. Garchi bu tadbir «Qalblarda mangu barhayot shoir: Navoiy va Bobur» hayoti va ijodiga bag'ishlangan bo'lsa-da, bayramda o'quvchilarimizni turli mavzulardagi chiqishlar kutardi.



Qalbida buyuk ajdodlarimizga hurmat, faxr tuyg'usi jo'sh urgan o'quvchi borki, tadbirga oshiqdi. Biz ustozlar esa ularga bugungi kecha odatdagidek emasligini namoyish etish uchun davramizga «Tong yulduzi» gazetasi xodimlarini ham taklif etdik. Avvalo, o'quvchilarimiz g'azalxonlikni maromiga yetkazishdi. «Bobur va malika Bayda» sahna ko'rinishida qatnashgan o'quvchilarning iqtidorlariga esa tasannolar aytdik. So'ng, tomoshabinlar ham chetda qolmasin deya, barchani mushoiraga chorladik. Unda hatto o'qituvchilar ham faol qatnashishdi. Ayniqsa, ingliz tili fani o'qituvchisi Sitara Salohiddinovaning ijrosini o'quvchilar guldiros qarsaklar bilan olqishlashdi.

Axir aytishadi-ku, «Navoiyni har kim o'qishi kerak, har kun o'qishi kerak». Mehmonlardan biri O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir Axtam-



qul Karimovning bobolarimizga atab yozgan g'azallari o'quvchilarimizga juda manzur bo'ldi. Fursatdan foydalanib, biz respublikada yagona bo'lgan mazkur bolalar va o'smirlar gazetasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydik. Zero, maktabimizdagi barcha ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari o'quvchilar qalbida adabiyotga, ijodkorlikka mehr uyg'otishni, ularning iste'dodini yuzaga chiqarishni istaydi. «Tong yulduzi»ni esa bu borada iste'dodlar kashfiyotchisi, bolalarning bugungi tadbirda topishgan yangi do'sti, deiyish mumkin.

**Hulkar EGAMBERDIYEVA,**  
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 230-umumta'lim maktabining  
ona tili va adabiyot fani metod birlashma rahbari

## ZULFIYAXONIM TAVALLUDINING 105 YILLIGIGA

O'zbekiston xalq shoiri, taniqli jamoat arbobi, ko'plab Davlat mukofotlari sovrindori Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-martda Toshkent shahrida tug'ilgan. «Hayot varaqlari», «Uni Farhod der edilar», «Sadoqat», «Hijron kunlarida», «Shalola», «Mushoira» singari o'nlab kitoblar muallifi.



## SHOIRA IJODINING BIR QIRRASI

Shu bilan birga, turli tillardagi durdona asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan mohir tarjimon ham edi. Jumladan, Qaysin Quliyevning «Davom etsin jimlik» she'rini mohirlik bilan o'zbek tiliga o'g'irgan.

**Jimlikda yonadi o'choqda olov,  
Ona go'dagiga to'qiydi alla.  
Jimlikda tandirda qizaradi non,  
Qushlar ham, kuylar ham uchar baralla.**

Tarjimonlik san'ati haqida gap ketganda, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov shunday degan edi:

«Tarjimonlik uchun ulkan iste'dod va qobiliyatdan tashqari, ulkan so'z xazirasi ham kerak».

Zulfiyaxonim Lesya Ukrainka, Anna Axmatova, Marina Svetayeva, Margarita Aliger, Lyudmila Tatyanchevaning ijodidan qilgan tarjimalarida iste'dodi, qobiliyati va so'z boyligining ko'pligi shundoqqina namoyon bo'ladi.

A. Pushkindan qilgan tarjimalarida ham san'atkorona ruh seziladi:  
**Agar seni aldasa hayot,  
Sen noumid bo'lma hech qachon.  
G'amli kunga qilgil itoat,  
Xushnud kunlar keladi, ishon!**

Qaysin Quliyevdan qilgan tarjimalarida ham Zulfiyaxonimga xos ruhiyat bor:

**O'ldirmang jimlikni! Jimlikda yolg'iz,  
Fikr dengiziga cho'mar donishmand.  
So'nuvchi chiroqda oyga tikib ko'z,  
Bitmas xayollari bilan bo'lar band...**

Bir so'z bilan aytganda, Zulfiya ijodining bir qirrasini bo'lgan tarjimonlik san'ati yosh tarjimonlar uchun bir maktab bo'la oladi.

**Dilshunos MAZOKIROVA,**  
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 42-umumta'lim  
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## ZULFIYAXONIM IZDOSHLARI

**Yurtimizda iqtidorli  
qizlar orasida «Zulfiyaxonim qizlari» ko'rik-tanlovi o'tkaziladi.**

Deyarli har bir qizning ushbu Davlat mukofotiga sazovor bo'lish oliy maqsadiga aylangan. Men ham bu yil ushbu tanlovda ishtirok etish baxtiga muayassar bo'ldim. Tanlovning respublika bosqichida publitistika yo'nalishi bo'yicha qatnashdim. Bellashuv davomida juda ko'p iqtidorli qizlarni uchratdim. Ularning ijodiy ishlarini ko'rib, hayratim oshdi.

Shuningdek, «Buvijonim

kiygan liboslar» respublika tanlovining tuman bosqichida qatnashdim. Men atlas, adrasdan tikilgan ko'ylak va shunga monand ravishda tanlangan yopinchiqni tashlab, egnimdagi libosni namoyish qildim. Hakamlar hay'ati tomonidan men tanlagan libos eng yaxshisi deb e'tirof etildi va men tuman bosqichida g'olib bo'lib, tanlovning respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdim.


Endi ushbu bellashuvning respublika bosqichida qatnashishga astoydil harakat qilmoqdaman. Men bir oy mobaynida ikki bor katta yutuqqa erishdim va buning uchun ustozlarimdan minnatdorman.

**Feruz RUZUMBAYEVA,**  
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qo'ng'iro't  
tumanidagi 35-umumta'lim maktabining 11-sinf  
o'quvchisi





# ADABIYOT SHAYDOLARI TAQDIRLANISHDI



Xusrav timsollarining mohirona ijrosi hammani hayratga soldi. O'quvchilar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar kechaga yanada zavq-shavq bag'ishladi. Tadbir so'ngida maktab rahbari Davlat aka Qutliyev barcha faol qatnash-

gan o'quvchilarni maqtovgan yorlig'i bilan taqdirlandi.

**Nilufar SOBIROVA,**  
Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 31-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Maktabimizda buyuk mutafakkir, g'azal mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlangan «Navoiyni yod etib» tadbiri bo'lib o'tdi.**

Tadbirda maktabning barcha o'quvchilari faol qatnashdilar. Dilnura Rahmonova, Charos Sotimboyeva, Qutlibeka Maqsudbekova, Boburbek Baxtiyorov, Bibijon Qodirova, Ruslan Ahmadjonov, Sarvinoz Sotimboyeva kabi

she'riyat, adabiyot shaydolarining buyuk bobolarimizning ruboiy, g'azallaridan yod olishi, xamsachilik an'anasi va «Xamsa»dagi dostonlarining mazmun-mohiyati haqidagi ma'lumotlari barchada katta qiziqish uyg'otdi. Farhod va

## BIR KITOB TAQDIMOTI

**Bilim maskanida sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimovning asarlari asosida «Bir kitob taqdimoti» nomli ma'rifiy tadbir o'tkazildi.**

Tadbirda o'quvchilar tomonidan yozuvchining «Dunyoning ishlari» nomli asari taqdimoti va tahlili amalga oshirildi. Kutubxonachi

Muqaddas Yoqubova bu asarning mazmun-mohiyatini, tarbiyaviy ahamiyatini o'quvchilarga yetkazish maqsadida «Eng yaxshi taqdimot»



tanlovini o'tkazdi. Asarning ahamiyatini keng va to'laqonli yoritib bergan 6-«B» sinf o'quvchilaridan tashkil topgan «Navoiy izdoshlari» jamoasiga O'tkir Hoshimovning hikoyalari to'plamini sovg'a qildi.

**Rislig'oy TURDIYEVA,**  
Andijon shahri, Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

## BIZNI QUVONTIRGAN TASHRIF

**Qadrli tengdoshim, maktabimiz haqida ko'p eshitgansiz.**



Yangi qurilgan ta'lim maskanimizdagi sharoitlar, bilimga chanoqoq sinfdoshlarimning izlanishlari meni yanada chuqur bilim olishga undamoqda. Ayniqsa, Yurtboshimizning maktabimizga qilgan tashriflari barchamizni yanada ilhomlantirdi. O'sha kuni sira unutmayman. Prezidentimiz tashrif davomida Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i kiraverishidagi adib haykali poyiga guldasta qo'ygandilar. So'ng, muzey va o'quv dargohimizni ko'zdan kechirar ekanlar, bizga sovg'alar ham ulashgan edilar.

Yaqinda esa ta'lim maskanimizda O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Ular o'z hayot yo'llari, kitobga munosabatlari haqida so'zlab berdilar. Birgalikda adib muzeyini aylanar ekanmiz, ulug' yozuvchimiz haqidagi fikrlaridan ham bahramand bo'ldik. Uchrashuv so'ngida Xudoyberdi bobo meni bag'rilariga bosib, ezigu niyatlar bildirdilar.

**Saidbek RAHIMBEKOV,**  
Toshkent shahar, Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabining 8-sinf o'quvchisi

## OMADIMNI SINAB KO'RAMAN

**Biz yosh avlodni bilimli va ziyoli bo'lib voyaga yetishimizda kitobning o'rni beqiyos. Buni har bir tengdoshim yaxshi biladi. Shuning uchun ham kitobga bo'lgan e'tibor, mehr-muhabbat yanada kuchayib bormoqda.**

Yurtboshimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan «Yosh kitobxon» tanlovi tobora qizg'in tus olmoqda. O'tgan yili men ham ushbu tanlovning shahar bosqichida qatnashib, 1-o'rinni egallab, respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritgandim. Tanlovning respublika bosqichi bahs-munozaralarga boy tarzda o'tdi. O'zbek adabiyoti shartida menga Anvar Obidjonning qalamiga mansub «Meshpolvon jangga otlandi» she'riy asari bo'yicha savollar tushdi. Ushbu savollarga men a'lo darajada javob berdim. Ammo menga biroz omad yetishmadi. Garchi respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritmagan bo'lsam-da, tanlov bahona ko'plab do'stlar orttirdim. Yozuvchi, shoirlar bilan yaqindan tanishdim. Ularning ayrimlari aynan «Tong yulduzi» gazetasi tufayli mashhur bo'lishgani meni to'lqinlantirib yubordi. Men o'z ustimda ishlab, ko'plab adabiyotlar o'qib, yana omadimni sinab ko'rmoqchiman.



**Asal RAVSHANXONOVA,**  
poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 114-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi



Davruga darsliklar timsolidagi o'quvchilar kirib kelishadi. So'z jismoniy tarbiya faniga beriladi: «Bir, ikki, uch, to'rt, sog'lom bo'lay desangiz, 100 metr ga yuguring, har kuni ertalab kamida 20 daqiqa davomida jismoniy mashqlar bajaring! Ana, ko'rdingizmi, matematika fani menga ham eng yaqin ko'makchi»...

## MENI DERLAR BESH SONI...

Besh raqamini bo'yniga ilib olgan o'quvchi esa:

«Meni derlar besh soni, A'lochilarning joni»...

deya dona-dona qilib she'r o'qiydi.

Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 44-umumta'lim maktabining 5 - «V» sinfida o'tkazilgan

«Matematika va go'zallik» mavzusida

g'i tadbir ana shunday tarzda o'quvchilarning matematika faniga bergan o'ziga xos qiziqarli ta'rif bilan boshlandi. Sevara Qoraboyeva, Yorqinjon Shermatov, Umidjon Aliyev kabi ustozlar shunday tadbirlar, ochiq darslar orqali o'quvchilarning ushbu fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada o'stirishga harakat qilishdi. 5-sinf o'quvchilari 0 dan 10 gacha

bo'lgan sonlarga she'riy ta'rif berishdi. «Zakovat» bilimdonlar bellashuvida o'quvchilar ustozlari Nargiza Yoqubova tomonidan berilgan «Ikki litr

sutni qanday qilib bir

litrlidishga joylash mumkin?», «Kim o'tirgan holatda yura oladi?» kabi mantiqiy savollarga Behruzbek G'ulomjonov, Nilufar Mahmudova kabi zukko, bilag'on o'quvchilar to'g'ri javob topib, eng qimmatli sovg'a – kitoblar bilan taqdirlanishdi.

N. NAZAROVA



Ta'lim maskanimizga 1-sinf o'quvchilari o'rtasida matematika fanidan

## HISOBLAYMIZ – QUVNAYMIZ

mavzusida noan'anaviy ochiq dars va bellashuv bo'lib o'tdi.

Unda tumandagi qo'shni maktab o'qituvchilari hamda ota-onalar ishtirok etdi.

– Men kelajakda matematik olim bo'lmoqchiman, – deydi 1-«A» sinf o'quvchisi Xondamir Alibayev. – Hozir masala yechishni o'rganyapman. Barcha mavzularni ustozimiz katta ekranda tasvirli shaklda ko'rsatib beradi.

– Qizim Robiyaxon maktabga chiqmasidan oldinoq sanoqni yaxshi bilardi. Hatto qo'shish, ayirish amallari orqali bemaol o'zi misollar yecha olardi, – deydi ota-onalardan biri Shahnoza Mahmudova. – Bundan xabari bor ayrim tanishlarimiz bekorga shuncha narsalarni o'rgatib qo'yibsizlar, maktabga chiqqach, bu misollarni yechib bo'lganman, deb qiziqishi so'nadi, deya bizni biroz xavotirga ham qo'yishgandi. Shukurki, qizim maktabga chiqqach, o'qishga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi.

Tadbir so'ngida g'olib o'quvchilarga faxriy yoriqlar va esdalik sovg'alari topshirildi.

Nodira ZIYAYEVA,

poxtaximzning Sergeli tumanidagi

6-DIUMning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

## MATEMATIKA KERAK HAR O'G'IL QIZGA, BUGUN BU FAN SIRLARIN OCHAMIZ SIZGA!

Mazkur tadbirni 5-matematikaga ixtisoslashtirilgan 5-sinf hamda 9-«B» sinf o'quvchilari tashkil-lashtirishdi. Unga uzoq yillar mobaynida shu maktabda ishlagan, hozirda 81-umumta'lim maktabida faoliyat yuritayotgan matematika fani o'qituvchisi Rahmatilla Karimov hamda o'quvchilarning ota-onalari ham taklif etildi.

«Sahna ko'rinishi» shartida sahnaga qo'llariga UCHBURCHAK va TO'RTBURCHAK shaklini ushlab olgan ikki o'quvchi ko'tarildi. – Men burchaklarning zo'riman, sen mening ukamsan, – deydi Uchburchak. To'rtburchak esa: «Mening tomonlarim senikidan bitta ko'p, shuning uchun men senga aka bo'laman», deydi. Bu gap Uchburchakka yoqmaydi. Biroz dam olish maqsadida yonboshlagan To'rtburchakning ko'zi uyquga ketadi-yu, Uchburchak uning burchaklarini qirqib tashlaydi. To'rtburchak uyg'ongach, Uchburchak uni mazax qilganday, «Sen menga aka emassan, burchaklaringga

Poytax-

timizning Uchtepa tu-

manidagi 4-umumta'lim maktabida

«Matematika va informatika» fani oyligi doirasida o'tkazilgan «Assalom, matematika!» tadbirida o'quvchilar matematika fanining ahamiyatini ochib berishga harakat qilishdi.



qaragin-chi», deydi. To'rtburchak esa: «Burchaklarimni qirqib, sakkizburchak qilib yanada kattalashtirib qo'yibsan», deydi. Uchburchak qilmishidan uyaliq qoladi.

Matematika amallarga ta'rif beriladigan yana bir shartda o'quvchilar ikki guruhga bo'linishadi. Har ikkala guruh a'zolari turli geometrik shakllardan tezkorlik bilan to'g'ri-to'rtburchak va kvadrat shaklini hosil qilishi kerak edi. Ular shartni bajargunlaricha 9-«B» sinf o'quvchisi Risolat Nurillayeva pianinoda yoqimli kuy chalib, davraga ko'tarinkilik bag'ishlab turdi. 15 dan ortiq matematik atamalarga ta'rif berishda 9-«B» sinf o'quvchisi Ziyoda Rixsiboyevaga teng keladigani bo'lmadi.

– Shogirdlarimning matematika faniga oid tadbirini miriqib tomosha qildim, – dedi faxriy ustoz Rahmatilla Karimov. – Har bir shart o'quvchiga motivatsiya beradi. Topshiriqlarni berilib bajarayotgan yosh matematiklar orasidan Xorazmiydek buyuk donishmandlar yetishib chiqsa, ajabmas.

Tadbir yakunida maktab rahbari Xushnida Norqulova shunday ajoyib tadbirni tashkillashtirishda jonbozlik ko'rsatgan ustozlardan Feruzbek Qurbonov hamda Yo'ldosh Qurolovni, shuningdek, faol ishtirok etgan 40 nafar o'quvchini maqtov yoriqlari bilan taqdirladi.

Nodira NAZAROVA,  
Sayyora QODIROVA





# MONEY VERBS

Complete the sentences using the appropriate from of the given verbs.

**Borrow, sell, earn, lend, pay, make, rent, afford, hire, spend.**

- I'd love to own a sport car, but I can't \_\_\_\_\_ one.
- I'll be working in Madrid for a year. Hopefully I'll \_\_\_\_\_ a flat in the city centre.
- People say you shouldn't \_\_\_\_\_ from friends, but I've done it a lot of times.
- My cousin works in Burger King and he only \_\_\_\_\_ 120 € a week.
- We \_\_\_\_\_ a rock band that played during the party.
- I am going to \_\_\_\_\_ my videogames to get new computer.
- How much does a fireman \_\_\_\_\_?
- This coat \_\_\_\_\_ a fortune, but it is designer label what you are really \_\_\_\_\_ for.
- Some people \_\_\_\_\_ a fortune, or cars.
- I asked my Mum if she could \_\_\_\_\_ me some money to buy books. I'll back when I can.



Zaynab BEKCHANOVA,  
the teacher of school № 1, in Kushkupir district, Khorazem region

## Vocabulary



What pair do we put on when we take our shoes off?



What pair do we wear on our feet?



What pair do we wear on our eyes when it's bright?



What pair do we wear on our eyes to see better?



What pair do we cut things with?

Zilola SIROJIDDINOVA,  
the teacher of school № 41, in Angren district, Tashkent region

Bolajonlarning shodon qiyqirig'i, rang-barang bezaklar, yuzidan nur taralib turgan tarbiyachilar... Ha, sezib turganingizdek, ukamni bolalar bog'chasidan olib kelish har galgidek mening chekinga tushdi. Bu yerga kelsam, boshqacha zavq olaman. Ukamga mehrim o'zgacha. Meni ko'riboq u ham quchog'imga otiladi. Bugun qanaqa rasm chizgan-u qanday taom yeganini gapira ketadi.

Tabiatan ochiqko'ngil va mehribon bo'lgan tarbiyachi Munavvar opa meni yaxshi taniydi. Mas'uliyatli opa sifatida u kishidan ukam haqida tez-tez so'rab turaman.

Bir kuni Munavvar opa bilan endigina so'rashayotganimizda, qaysidir bolakayning chinqirig'i eshitildi. Beixtiyor ovoz kelgan tomonga qaradik. Chamasi 4-5 yoshlardagi bolakay shunaqangi alam bilan yig'lardiki, zo'riqqanidan yuzlari qizarib ketgan, arang nafas olardi. Qo'lini musht qilib olgan, onasining yupatishlariga parvo ham qilmasdi. Munavvar opa guruhdagi bolajonlarni menga ishonib topshirgan bo'ldi-yu, o'sha tomonga qarab yugurib ketdi. Hayron bo'ldim.

– Ukajon, anavi bola nega yig'layapti? – deb so'radim. Ukam esa ovozini pastlatib qulog'imga shivirladi:

– Uning dadasi yo'q, u esa dadam bor, deyapti. Har doim oyisi bog'chadan olib ketgani keladi, – dedi. O'ylanib qoldim. Yosh bolachalarning topgan gapini qaranga!

# BOLAKAY QO'LIDAGI SURAT

(Voqeiy hikoya)



– Bugun dadasining suratini olib kelibdi. Biz baribir dadasi borligiga ishonmadik...

Bolakayning qo'lidagi suratga endi ko'zim tushdi. Hujjatlarga yopishtiriladigan, chetlari yirtilib ketgan, bo'yinbog'li amakining kichkina suratini g'ijimlab olgan edi. Onasi bolakayni yupata olmay, oxiri o'zi ham qo'shilib yig'lab yubordi. Munavvar opa esa uni tinchlantirishga harakat qilardi:

– Bo'ldi endi, opajon, o'zingizni qo'lga oling, – mushtipar ayolning mungli ovozi eshitildi. – Bolam, bu suratni qayerdan topding?! Otangni shunchalik sog'indingmi?

Bolakay xarxasha qilishdan to'xtamas, ovozi boricha qichqirar edi. Ona dadasining oldiga olib borish va'dasi bilan bolasini arang ovutdi. Munavvar opa esa ularni kuzatib qo'ydi. Angrayib qolganimni ko'rib, menga izoh berdi.

– Bu ayol turmush o'rtog'i bilan ajrashish arafasida. Bechora bolakayning dadasi hech xabar olgani kelmaydi. Shunda ham unga bo'lgan mehrini qarang.

– Uyga ketaylik, opa, – dedi ukam qo'limni tortib, – dadam ham ishdan kelgandirlar.

– Mana, uyga ham qaytapyamiz... Sho'x-shodon sakrab ketayotgan ukamning baxtliligiga qarab, ko'zim quv naydi. Qiziq, ayrimlar esa farzandining bolalik onlarini xazon qilayotganini sezishmaydi ham.

Lobarxon JALOLOVA,  
Navoiy viloyati, Navoiy shahridagi 11-ayrim fanlar chuqur o'rgatiladigan ixtisoslashtirilgan maktabining 10-sinf o'quvchisi



# ORAZIN YOPQOCH, KO'ZIMDIN SOCHILUR HAR LAHZA YOSH, BO'YLAKIM, PAYDO BO'LUR YULDUZ, NIHON BO'LG'OCH QUYOSH...



**Maktabimizda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari Gulruh Haydarova, Mamlakat Otaqulova, Gulmira Soibovalarning sa'y-harakatlari bilan so'z mulkining sultoni, buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning ijodiga bag'ishlangan kecha o'tkazildi.**

Tadbirda yozuvchi va tarjimon Ortiqboy Abdullayev, yozuvchi Muhammad Saloh, shoira Kavsar Turdiyeva, aktyorlardan Rixsitilla Abdullayev, Mahfuza Bobotillayeva taklif qilindi. O'quvchilar Navoiy g'azallari, ruboiylaridan o'qishdi, sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Mehmonlar yig'ilganlarga insonning kamolotida kitobning o'rni beqiyosligi haqida so'zladilar. Hayotda uchraydigan har bir jumboqqa kitob orqali yechim topish mumkinligini ta'kidladilar.

Jumladan, bolalar shoirasi Kavsar Turdiyeva Hazrat Navoiy asarlarining umrboqiyiligi, bugungi kundagi tarbiyaviy ahamiyati, o'lmas g'oyalari haqida gapirib, o'z ijod namunalari bilan o'qib berdi.

**Gulbahor RAHIMOVA,**  
poytaxtimizdagi 235-umumta'lim maktabining  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## SHE'RIM GAZETADA BOSILGACH...

**Sinf xonaga kirishim bilan sinfdoshlarim atrofimni o'rab olishdi. Avvaliga hayron bo'ldim.**

Buyuk mutafakkir, qariyb olti asrdiki, serqirra ijodi bilan dunyo ahlini lol qoldirib kelayotgan shoir, g'azalnavis Alisher Navoiy tavalludining 579 yilligi maktabimizda keng nishonlandi. Yuqori sinf o'quvchilari tomonidan tayyorlangan tadbir «Navoiy – buyuk siymo» deb nomlandi. Ushbu tadbirga yig'ilganlar shoirning mehr-oqibat, muhabbat, yurtga sadoqat, do'stlik haqidagi yozgan ash'orlaridan bahramand bo'lishdi. Qizlar esa shoirning g'azallari asosida yaratilgan mumtoz qo'shiqlarga raqsga tushishdi. Shoirning ichki kechinmalari aks etgan sahna ko'rinishi esa yig'ilganlarda katta taassurotlar qoldirdi.

**Oliya RASULOVA,**  
Navoiy viloyati, Konimex  
tumanidagi 7-umumta'lim  
maktabining ona tili va adabiyot  
fani o'qituvchisi

Keyin qarasam, «Qishning ziynati» nomli she'rim chop etilgan «Tong yulduzi» gazetasini doskaga ilib qo'yishibdi. Birdaniga barcha qarsak chalib yubordi. Ustozim Zebo opa Ro'zmetova meni tabrikladilar.

Sinfdoshlarim she'rimni yodlab ham olishibdi. Dugonalarim menga rosa havas qilishdi. Bu kun men uchun unutilmas,

quvonchli kun bo'ldi.

Menga ustozim va do'stlarimga bu shodlikni ulashgan tahririyat xodimlariga katta rahmat aytaman!

**Robiyabonu BEYSENOVA,**  
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi  
3-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf  
o'quvchisi

## SUXANDON BOBOJONIM

(Bobokalonimiz Ergash Jumanbulbul o'g'liga)

Suratingiz yonimda,  
Do'mbirangiz qo'limda.  
She'rlaringiz yodimda,  
Qissaxon bobojonim,  
Bir jahon bobojonim.

Baxshilarning sardori,  
Shoirlarning nomdori,  
Bulbullarning dongdori,  
Suxandon bobojonim,  
Bir jahon bobojonim.

Donolarning donosi,  
Mullalarning mullasi,  
So'z ilmining ustasi,  
Bilimdon bobojonim,  
Bir jahon bobojonim.

Prezident imdot etdi,  
Bir muzey bunyod etdi.  
Ruhingizni shod etdi,  
Barcha sizni yod etdi,  
Suxandon bobojonim,  
Bir jahon bobojonim.

**Charos ABSAITOVA,**  
Toshkent shahar, Yashnobod  
tumanidagi 307-umumta'lim  
maktabining 4-«G» sinf o'quvchisi



## ORZU

Hozir kichik g'unchaman,  
Epchil, dono qizchaman.  
Ko'plab kitob o'qiyman,  
Hatto she'rlar to'qiyman.  
Oyga tomon uchaman,  
Yulduzlarni quchaman.

**Irodaxon ABDUHALIMOVA,**  
Andijon viloyati, Oltinko'l  
tumanidagi 40-umumta'lim  
maktabining 2-«A» sinf  
o'quvchisi



## AJOYIB-NAQSH

**G'alati savol berar,  
Sinfoshim Shoysta:  
– Shaftoli danagiga  
Naqsh o'ygan qay usta?**



## JIRAFAGA SAVOL

**Har xil-da, u zo'r boylik,  
Kimda ko'proq, kimda kam.  
Turishingga yarasha,  
Bo'yga tengmi aqling ham?**



## JAHLDOR-MORJNING AYTGANLARI

**Asabim joyidamas,  
Hushim yo'q hech «ting-ting»ga.  
Aytg buni gitara  
Ishqibozi pingvingga.**

Bugun Anvarning tug'ilgan kuni. Shu munosabat bilan unga do'stlari har xil sovg'alar berishdi. Azamat ismli do'sti «Olim bola ertaklari» nomli kitob sovg'a qildi. O'yin-kulgi bilan Anvarning tug'ilgan kuni ham o'tdi. Bir necha kundan keyin Anvar xonasini tartibga keltirayotib, o'yinchoqlari orasida do'sti sovg'a qilgan kitobni ko'rib qoldi. Kitobda «Ayyor va sodda», «Ochko'z boy», «Oltin olma», «Quyosh yeringing pahlavoni» nomli ertaklar bor ekan. Anvar kitobni o'qigani sari, keyin nima bo'lar ekan, deya qiziqishi ortib borardi. Anvarning ishtiyog bilan kitob o'qiyotganidan ota-onasi juda xursand bo'lishdi. Unga yana

kitoblar sovg'a qilishdi. Endi Anvarning shaxsiy kutubxonasi bor va kitoblar bilan vaqtini maroqli o'tkazayпти. O'qiganlaridan olgan taassurotlarini, ertaklarni do'stlariga ham so'zlab beryapti. Uning maktabda olgan faxriy yorliqlari soni oltitaga yetdi. Ustozimizning aytishlaricha, uning nutqi ravonligi ham ko'p kitob o'qiganidan ekan.

Endi Anvarning shaxsiy kutubxonasi bor va kitoblar bilan vaqtini maroqli o'tkazayпти. O'qiganlaridan olgan taassurotlarini, ertaklarni do'stlariga ham so'zlab beryapti. Uning maktabda olgan faxriy yorliqlari soni oltitaga yetdi. Ustozimizning aytishlaricha, uning nutqi ravonligi ham ko'p kitob o'qiganidan ekan.

Endi Anvarning shaxsiy kutubxonasi bor va kitoblar bilan vaqtini maroqli o'tkazayпти. O'qiganlaridan olgan taassurotlarini, ertaklarni do'stlariga ham so'zlab beryapti. Uning maktabda olgan faxriy yorliqlari soni oltitaga yetdi. Ustozimizning aytishlaricha, uning nutqi ravonligi ham ko'p kitob o'qiganidan ekan.

Endi Anvarning shaxsiy kutubxonasi bor va kitoblar bilan vaqtini maroqli o'tkazayпти. O'qiganlaridan olgan taassurotlarini, ertaklarni do'stlariga ham so'zlab beryapti. Uning maktabda olgan faxriy yorliqlari soni oltitaga yetdi. Ustozimizning aytishlaricha, uning nutqi ravonligi ham ko'p kitob o'qiganidan ekan.

**Aziza GAIPOVA,**  
Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi  
40-umumta'lim maktabining 4-sinf  
o'quvchisi

**TUG'ILGAN KUN**



# KITOB - YAXSHI DO'ST

Maktabimiz

**o'quvchilari turli uchrashuvlar, kitobxonlikka oid bellashuvlar o'tkazishga juda qiziqishadi. Yaqinda ta'lim maskanimizda 5 tashabbus doirasida kitobxonlikka oid tadbir o'tkazdik.**

Unda bolalar shoiri Nabijon Ermatov ishtirok etdi. Uchrashuv davomida shoir xalq og'zaki ijodi

birimizga tuman kutubxonachilari uslubchisi Dilfuza Rahimovani ham taklif etdik.



janrida yozilgan «Sakson sakkiz sara so'z», «99 topishmoq», «Adabiy topishmoqlar» kabi to'plamlariga kiritilgan topishmoq va tez aytishlaridan aytib berdi. Zukkolar javob berishga oshiqishar ekan, qizg'in suhbat boshlanib ketdi. So'ngra, 4-sinf o'quvchilari ustozlari Noila Qosimova boshchiligidan tayyorlagan badiiy chiqishlarini namoyish etishdi. Kitobxonlik bayramimizni xolisona baholash uchun tad-

4-«G» sinf o'quvchilarining sinf rahbari Sanobar Lapasova boshchiligidan tashkillashtirgan uchrashuv mehmoni esa O'zbekiston xalq hofizi Hasan Rajabiy bo'ldi. Davra suhbatida davomida hofiz Navoiy g'azallariga bastalangan kuy va qo'shiqlardan ijro etdi.

**Vasila SAIDOVA,**  
Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 234-umumta'lim maktabi kutubxonachisi



**Kitobni bejizga o'qibgina qiyoslamaydilar. Zero, u chindan-da ong-u shuurimizni, qalbimizni ezgu nurlari ila yoritadi.**

Tumanimizda «Jajji zukko kitobxonlar» ko'rik-tanlovi o'tkazilib, unda qirq ikkita maktabning boshlang'ich sinflaridan bir nafar g'olib o'quvchilar qatnashishdi. Ishtirokchilar 7 guruhga bo'linib, «Tanishuv», «Bolalar adiblari va kitoblari yuzasidan savol-javob», «Sevimli kitoblardan sahna ko'rinishlari ijro etish» kabi shartlar bo'yicha bellashishdi.

«Porloq yulduzcha» jamoasidagi o'quvchilar ustozlari Dilfuza Oripova (274-umumta'lim maktabi), Sayyora Eshonova (98-umumta'lim maktabi), Yulduz Xalilova (122-umumta'lim maktabi), Dilfuza Shermuhammedova (288-umumta'lim maktabi), Saodat Junayeva (302-umumta'lim maktabi), Dilnoza Po'latova (105-umumta'lim maktabi)ning sa'y-harakatlari tufayli 1-o'rinni egallab, g'olib bo'ldilar.

**Mahmuda VALIYEVA**



## «PISA» DASTURI DOIRASIDA

**Bugungi kunda o'quvchilarning bilim darajasini baholab borish maqsadida turli testlar o'tkazilayotganidan ko'pchiligimiz xabardormiz. Ammo, bolajonlar orasida bunday test sinovlari nima maqsadda o'tkazilyapti, degan o'rinli savollar tug'ilishi tabiiy. Bugun men shu haqida qisqacha ma'lumot berishni lozim topdim.**

«PISA» o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlik darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro dastur bo'lib, 2000-yildan buyon har uch yilda bir marotaba o'tkazib kelinmoqda. Navbatdagi tadqiqotlar 2021-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, unda O'zbekistondan vakillar ham qatnashishi ko'zda tutilgan. Shu bois, hozirdan test sinovlariga puxta tayyorgarlik ko'rilmoqda.

Jumladan, bizning maktabimizda ham «PISA», «PIRLS», «TIMSS» dasturlarini o'rganish keng yo'lga qo'yilgan. Ushbu dasturlar asosida tuzilgan testlar bolalarni mantiqan teran fikrlashga o'rgatadi. Bola bu testlardan mutlaqo zerikmaydi. Rahbarligimdagi 3-«B» sinf o'quvchilari bilan sinfdan tashqari o'qish soatlarida, to'garak mash'ulotlarida va matematika darslarida xalqaro dastur asosida tuzilgan testlardan foydalanmoqdaman. O'quvchilarim ham katta ishtiyok bilan o'z bilimlarini sinab ko'rishmoqda.

**Dildora RAHMATOVA,**  
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 206-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

## BOKS - MENING QILAYOTGIM

**Mening boksga bo'lgan qiziqishim 5 yoshimdan boshlangan. Oynayi jahon orqali boks bo'yicha musobaqalarni tomosha qilib, qo'llarimni musht qilgan holda ro'paramda raqibim turganday bokschilarning harakatlarini takrorlardim.**

Avvaliga dadam bilan ayam bu shunchaki o'g'il bolalarga xos qiziqish deb o'ylashdi. Boksga bo'lgan qiziqishim kundan kunga ortib boraverdi. Dadam Suhrob Bo'ronov murabbiylik qiladigan boks to'garagiga olib bordilar. Boks va qo'l jangidan saboq ola boshladim. Boks bo'yicha Yurtimiz faxriga aylangan Hasanboy Do'stmatov hamda Shaxran G'iyosovga juda havas qilar edim. Bu qiziqishimni sezgan murabbiyim menga alohida e'tibor qarata boshladi.

Sportning boks turi bo'yicha ko'plab musobaqalarda ishtirok etdim. Qarshi, Koson, Beshkent, Samarqand, Toshkent, Buxoro kabi viloyat va shaharlarda bo'lib o'tgan musobaqalarda 1-, 2-o'rinlarni egalladim. Shu yilning 27-yanvarida Buxoro shahrida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasiga bag'ishlangan to'rtinchi Respublika turnirida 1-o'rinni egallab, Diplom va sovg'alar bilan taqdirladim. Kuni

kecha yana bir yurtdoshimiz Murodjon Ahmadaliyevning jahon chempioni bo'lib, O'zbekiston bayrog'ini baland ko'targaniga havasim keldi va men ham



ushbu sport ustalari kabi Prezidentimiz va ota-onamning ishonchini oqlashga, bayrog'imizni ko'klarga ko'tarishga ahd qildim.

**A'zamjon JO'RAYEV,**  
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi 7-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi





**SIZNING KITOB JAVONINGIZGA**

Aziz bolajonlar! Sizing kelajakda komil inson bo'lishingiz, bilim va salohiyatingizning oshishi kitobga bevosita bog'liq. Kichkintoylar uchun yaqinda yana bir yangi kitobcha chop etildi. Shahnoza Karimovaning «Qo'ziqorinning qalpg'i» deb nomlangan ushbu kitobchasidan bolalarning beg'ubor olamiga oid ko'plab jajji hikoyalar o'rin olgan. Hikoyalar mazmuniga monand tarzda chizilgan rangli rasmlar esa kitobchaga o'zgacha zeb bergan. Quyida ijodkorning ushbu hikoyalar to'plamidan e'tiboringizga havola qilamiz va u albatta, sizga ma'qul bo'ladi.

O'qituvchi birinchi sinf o'quvchilariga matematika darsini boshladi. Doskaga birdan to'qqizgacha bo'lgan raqamlarni yozdi. So'ng, bolalarga bir xonali sonlar mavzusini tushuntira boshladi. Madina qo'lini ko'tardi:

## RAQAMLAR XONADONI

Madina o'rnidan turib, barmoqlarini bukib sanay ketdi:

– Bir, ikki, uch, to'rt, besh,olti, yetti, sakkiz, to'qqiz... Bu sonlar bir xonaga qanday sig'adi, ular ko'p bo'lsa?! Undan ko'ra, bir xonadonli sonlar deylik. Shunda uylari katta bo'lardi...



## MATEMATIK

Raqamlar yordamida arifnogrammani yeching. Unda tez aytishlardan biri yashiringan. Do'stlaringiz bilan tez aytishib ko'ring-chi!

<b>O</b>		
1 - 5 - 9 - 14 - 18 - 23 - 27 - 31		
<b>L</b>		
2 - 6 - 10 - 15 - 19 - 24 - 28 - 32		
<b>T</b>	<b>I</b>	<b>N</b>
3 - 11 - 20	4 - 12 - 21	13 - 22
<b>M</b>	<b>A</b>	
7 - 16 - 25 - 29 - 33	8 - 17 - 26 - 30 - 34	

Tuzuvchi: Anvar MIRZAZODA

Uy-ro'zg'or buyumlaridan biri - kir yuvish mashinasi 150 yil avval ixtiro qilingan.

Ungacha esa ayollar qo'lda kir yuvishar va muzdek suvda chayganlar.

## KIR YUVISH MASHINASI TARIXI

Keyinchalik ba'zi amallarni bajaruvchi moslama yaratilib, unga issiq suv va sovun solib, maxsus dastasi qo'l orqali aylantiriladi. Shunda moslama ichidagi kir kiyimlar ag'darilib, qayta-qayta ishqalanib, toza holga kelgan. Olimlarning sa'y-harakatlari bilan bunday moslama yanada takomillashtirildi. Natijada, maxsus dastur asosida ishlaydigan zamonaviy avtomat - kir yuvish mashinasi yaratildi. Uning o'zi suvni to'ldiradi va isitadi, kirni tozalab yuvadi, chayadi, siqadi va hatto quritadi ham.

Ammo ayrim uy bekalari kirni qo'lda yuvishni afzal ko'radi. Buning ham o'zgacha gashti bor-da.

ZUHRA tayyorladi

## BOSHQOTIRMALAR

1. Quyidagi savollarga javob berib, javoblarning bosh harflaridan buyuk mutafakkir shoirning nomini hosil qiling:

- Qanday sonlar sanoqda ishlatiladi?
- Berilgan nuqtadan bir xil uzoqlikda joylashgan nuqtalar to'plami nima?
- Aylananing ikki nuqtasini tutashtruvchi kesma nima?
- 1 soat necha daqiqa?
- Eng kichik tub son.
- To'g'ri to'rtburchakning yuzi 21 kv.sm, eni 3 sm bo'lsa, uning bo'yini toping.

2. Quyidagi savollarga to'g'ri javob topib, javoblarning bosh harfidan buyuk olim nomini hosil qiling:

- Eng kichik natural son.
- Vaqt o'lchov birliklaridan biri.
- Aylana markazidan uning ixtiyoriy nuqtasigacha bo'lgan masofa.
- Butunning teng bo'laklari.
- Bir tomoni chegaralangan to'g'ri chiziq.
- Juft tub son.
- Qo'shish amalining hadlaridan biri.

Tuzuvchi: Nafisa MAJITOVA,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi  
51-umumta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi

**BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: 94-645-90-70**



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir  
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Dilshod KENJAYEV,  
Alisher S'DULLAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruz JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir  
Sayyora QODIROVA

Rassom  
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasi chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzili: bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
e-mail: [tongyulduzi1929@umail.uz](mailto:tongyulduzi1929@umail.uz)  
telegram: t.me/tongyulduz  
Adadi - 5226  
Buyurtma - V 4069

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08